

O'ZBEK ETNIK GURUHLARI ORASIDA «SAROY» URUG'NING TUTGAN O'RNI XUSUSIDA

*Eshonqulov Umurzoq Absamat o'g'li*¹

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqi tarkibidagi eng katta etnik guruhlardan biri saroy urug'ining o'rganilish tarixi, saroy atamasining kelib chiqishi, saroy urug'ining shahobchalari, ularning geografik joylashuvi bo'yicha mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Urug', qabila, aymoq, elat, el, xalq, millat, etnoganez, etnik tarix, Saroy, turkiy, Oltin pichoq dastali saroy, xonim saroy, sonsiz saroy. chem saroy, qo'ng'iroq. saroy, jomon saroy, qirg'iz saroy, mojar saroy, oltin tamg'a saroy, soydan tuman saroy, qipchoq saroy va jolong'och (yalong'och) saroy.

O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish tarix fanining murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu hozirgi kunning muhim muammolaridan biri hamdir. O'zbekiston mustaqilligi va o'zbek xalqining etnoma`daniy jihatdan tiklanishi sharoitida uning milliy o'zligini anglashini kuchaytirish uchun teran tarixiy bilim va tarixiy jarayonning etnik rang-barangligida xalqning o'z munosib o'rnini aniq-ravshan idrok etishi katta ahamiyatga ega.²

Mustaqilik yillarida vatanimiz tarixiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda ayniqsa xalqimizning etnik tarkibi, o'zbek xalqi kelib chiqishi, etnoganezi, urug' va qabilalar tarixi, tarkibi, tuzulishi, o'zbek urug'lari geografik joylashuvi kabi masalalarni o'rganishga intilish xalqimiz orasida tabora ortib bormoqda. Dunyoda hech bir millat yagona bir urug' yoki qabiladan tashkil topagandek o'zbek xalqi ham bundan mustosno emas. Tarixiy manbalarda o'zbeklar 92 yirik urug'dan iborat ekanligi qayd etib o'tilgan xususan XVII asrda ijod qilgan o'zbek mumtoz adabiyoti yirik namoyondasi Turdi Farog'iy ushbu urug'larni birlika inoqlika chorlab shunday deydi:

Tor ko'ngullik beklar, manman demang,

kenglik qiling,

To'qson ikki bo'li (qarindosh) o'zbek yurtidur,

tenglik qiling.

Birni qipchoqu xitoyu birni yuz,

nayman demang,

Qirqu yuz, ming son bo'lub, bir xon

oyinlik qiling³

¹ Jizzax davlat pedagogika universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarda masofaviy ta'lim kafedrasini o'qituvchisi +998973296993

² Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. — Toshkent: 2001.- B. 3.

³ Elmurodov N. Zarafshon vohasi O'zbek xalqi etnik guruhlari - Smarqand 2008: B. 4.



Turkiy xalqlarning Markaziy Osiyoga so'ngi eng yirik migratsiyasi ⁴ ([lotincha](#): *migratio* — ko'chaman, joyimni o'zgartiraman) XVI-asrda Shoybonixon boshchiligida Dashti Qipchoq o'zbeklari tomonidan amalga oshirilgan va buning natijasida Markaziy Osiyo xalqlarning etnik rang-barangligi oshib borgan.

Shayboniyxon Movarounnahrğa qo'shin tortib kelganda, uning lashkarida 92 qavm suvoriysi xizmat qilgan⁵. Dashtiqipchoqdan Movarounnaxrga ko'chib kelgan etnoslarning xammasi xam ko'p sonli bo'lavermagan. Ularning ayrimlarigina, masalan, qipchoq, saroy, qo'nqiroq, yuz, ming, nayman, mang'it, qitoylar boshqalarga nisbatan yirik etnik guruxlar edilar. Bularning xar birining soni 30-50 mingdan to 200 mingacha bo'lgan bo'lishi munkun⁶. XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida qipchoqlar 270 ming atrofida bo'lgan⁷.

Movarounnahrğa ko'chib kelgan etnoslarning eng yiriklaridan biri Saroy urug'idir. Saroy qabilasiga mansub kishilar asosan Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax, Andijon viloyatlarida yashedi. Saroy urug'iga mansub xalqlar Tojikistonning Ko'lob viloyatida Qizilsuvda va Yaxsuv daryolarining quyilish joylaridaxam yashedilar⁸.

Saroy etnik birlashma sifatida XIV—XV-asrlar davomida Dashti Qipchoqda shakilangan bo'lib, XVI-asrdada boshqa o'zbek qabilalari bilan hozirgi. O'zbekiston xududiga kelib joylashgan Saroy etnik guruhning kichik bir guruhi qozoqlarning arg'in qabilasi tarkibida ham mavjud bo'lgan⁹.

O'rta osiyo o'ziga xos geografik joylashuv xususiyatlari qadimdan o'troq, yarim o'troq dehqon va chorvador aholining shimoldan janubga, janubdan shimolga, sharqdan g'arbga, g'arbdan sharqqa tomon siljishlarida o'ziga xos etnomuloqot hududi bo'lganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga o'troq va yarim o'troq aholining muqim yashab qolishi, xo'jalik yuritishi uchun barcha tabiiy sharoitlarni yaratgan, hududda qishloq xo'jaligi, chorvachilik doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanib borgan hamda ko'chmanchi chorvachilikning o'troq dehqonchilik xo'jaligi bilan mushtarak rivojlantirish imkoniyati ko'plab etnik guruhlarni bu joyga ko'chib kelib o'rtnashishlariga sabab bo'lgan.

Saroy qabilasiga qarashli aholi asosan Samarqayd va Qashaqaryo oblastlarida yashaydi. Saroy nomi (etnonimi), shuningdek, Jizzax shahrida Andijonga yaqin joyda xam uchraydi." Pastdarg'om rayonining Jom qishlog'ida yashovchi 61 yoshli Mamasali Tilabov va Quldosh Yuldoshevlardan 1964 yilda yozib olingan ma'lumotlar ga ko'ra saroy qabbilasining quyidagi bo'laklari mavjud: chem saroy, qo'ng'irot. saroy, jomon saroy, qirg'iz saroy, mojar saroy, oltin tamg'a saroy, soydan tuman saroy, qipchoq saroy va jolong'och (yalong'och) saroy. Saroy urug'larining shevalarida xam qipchoqlik xususiyatlari to'liq saqlanib qolgan (Andijon va Jizzax saroylarining shevalari bundan mustasno). Lekin Samarqand oblastidagi, saroylarning shevalari, masalan, qirqlarning shevalariga nisbatan ba'zi xollarda adabiy tilga yaqinligi bilan farq qiladi¹⁰.

1924—26 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxatida O'zbekiston hududida yashovchi Saroy larning soni 50 mingdan ortiq bo'lib, ulardan 18 ming kishi Buxoro vohasida (Xarqonrud, Vobkentdaryo, Shahrud, Sultronravot, Poykend, Pirmait ariqlari bo'ylab), 20 ming kishi Karmana vohasida, Narpay vab. ariqlar bo'yida yashaganlar. Saroylarning katta bir qismi (15,5 ming kishi) Qashqadaryo vodiysida (Shahrisabz va Qarshi vohalarida, Samar tog'ining jan. yon bag'irlarida, Qashqadaryoning yuqori

⁴ [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 506-b

⁵ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 271-b

⁶ Shoniyo'zov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. — Toshkent: 2001.- B. 414.

⁷ Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 275-b

⁸ Norboyev.N O'zbek elining qabila va urug'lari xaqida Toshkent 1997-y B-66

⁹ [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 205-b

¹⁰ Doniyorov X, O'zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. – B. 89.



oqimida) yashashgan. Saroylarning ayrim guruxlari Jom cho'lida (6 ming), Ko'hitang tog' yon bag'irlarida (1 ming), Miyonkolda (3 ming), Samarqandning jan.g'arbida (1,5 ming), Nurota togining jan. yon bag'irlarida (3 ming) Jizzax atrofida (1,7 ming) yashagan. Saroylarning kichik guruxlari Farg'ona vodiysida hamda Afg'onistonda, Mozori Sharif va Balx atrofida istiqomat qilganlar. Saroylarning tarkibida bir qancha kichik va katta qabilalar mavjud bo'lgan. majarsaroy, qipchoqsaroy, qirg'izsaroy, naymansaroy va b. Bularning har biri, o'z navbatida, yana bir qancha urug'larga bo'lingan. Yuqorida keltirilgan bo'lim(qabila) nomlaridan ma'lumki, Saroylar tarkibiga Saroy bo'lmagan juda ko'p boshqa etnik guruhlar (az, majar, qipchoq, qirg'iz, qo'ng'iroq, va b.) kirgan. Saroylar XX-asrning ning boshlarida siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar sababli bir-biri bilan aralashib o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan¹¹.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkunki qadimiy xalqlardan biri bo'lgan o'zbeklar juda ko'p etnik guruhlardan tashkil topgan. Tarixiy manbalarda o'zbeklar 92 yirik urug'dan iborat ekanligi qayd etib o'tilgan bo'lib bu urug'lar o'z navbatida yirik shaxobchalarga, shaxobchalar yana mayda bo'laklarga, bo'laklar to'plarga, to'plar ota va sulolalarga bo'linib ketadi. Maqolamizning xotimasida shuni alohida ta'kidlab o'tmoqchimizki, xalqimizning etnik guruhlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning etnik tarixini o'rganib, yoshlarimizni ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini bilan yoritib berish bugunning dolzarb vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 3.
2. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 506-b
3. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarxi Toshkent 2007 271-b
4. Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni . — Toshkent: 2001.- B. 414.
5. Norboyev.N O'zbek elining qabila va urug'lari haqida Toshkent 1997-y B-66
6. А.Пардаев. Жиззах беклиги - Ўрта Осиё хонликлари даврида (XVI асрдан - XIX асрнинг 60 - йилларигача). тар. фан.ном. дисс.. Тош. – 2004.
7. Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб. 1843. с. 58-63.
8. Doniyorov X, O'zbek xalqining shajara va shevalari. - Toshkent, 1968. – B. 89.

¹¹ [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 205-b

